

Hozirgi Adabiy Jarayonda Yaratilayotgan Tuyuqlarning Qiyosiy Tahlili

Ibragimova Shaxnoza¹

Anatatsiya: Mazkur maqolada tuyuqlarning bugungi adabiy jarayondagi holati haqida shoirlar – Ismat Sanayev va Botirjon Ergashev ijodlaridan foydalangan holda yoritishga harakat qilingan. Shuningdek, hozirgi davrdagi tuyuq turlari, ularda ifodalangan ma’no-munosabat, ushbu janrdagi tajnislar to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Tuyuq, tajnis, she’riy san’at, mujannas, tezis, antitezis, moddai nutq, sintez, dov, ayn, muammo, pos.

Mumtoz o‘zbek she’riyatida shunday janrlar borki, she’riy san’atlarni mohirona qo‘llash natijasida hosil bo‘ladi. Bu esa asarning ta’sirchanligini hamda shoirning so‘z qo‘llash mahorati qanchalik yuksak ekanligini ko‘rsatib beradi. Shunday she’riy janrlardan biri *tuyuqdir*. Ushbu she’riy janr tajnis san’atini yuksak cho‘qqiga olib chiqdi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Mumtoz adabiyotda Lutfiy, Navoiy, Oghaliy, Bobur ijodida tuyuqning yetuk namunalarini uchratamiz. Zamonaviy adabiyotda esa Faxriyor, Narzullayev, Abdumajid Shomirzayevlar ijodida yangicha tuyuq namunalari mavjud. Ammo ushbu tuyuqlar ramalda emas, barmoq vaznida yozilmoqda. Mumtoz adabiyotdan farqli ravishda bugungi kundagi asarlar tuzilishi ham, mavzusi ham turlicha. Bu, albatta, kitobxon hamda bugungi kundagi muammolar talabi bilan yozilmoqda. Mumtoz adabiyotdagagi va bugungi kundagi tuyuqlarni farqlashdan oldin tuyuq haqida tushunchaga ega bo‘lish lozim.

Tuyuq (turkcha – tuymoq, his qilmoq) - mustaqil she’r shakli. 1) tuyuq “to‘rt misradan iborat mustaqil va to‘liq ma’noga ega bir butun asar ekanligi; 2) ko‘proq a,a,b,a ba‘zan a,a,a,a shaklida qofiyalanishi; 3) xuddi ruboiydagi kabi *tezis* (1-misra) ruboiy mavzusi bayon qilingan bo‘ladi, *antitezis* (2-misra) bunda birinchi misraga qarama – qarshi fikr aytildi, *moddai tuyuq* (3-misra) to‘rtinchi misrada aytimoqchi bo‘lgan fikr uchun ko‘prik vazifasini o‘taydi, *sintez* (4-misra) xulosa kabi kompozitsiyaga ega bo‘lishi [7:100]; 4) murabba she’rlaridan farqli o‘laroq so‘nggi misralarda shoir taxallusining ko‘rsatilmasligi kabi xususiyatlari bilan ruboiyiga o‘xshasa ham, ammo o‘ziga xos yagona vazn “*ramali musaddasi maqsur*” (foilotun, foilotun, foilun) da yozilishi va shu “*vazn bilan o‘z badaniga noz libosini kiyishi*” (A.Jomiy) aksar qofiyalarning tajnisli so‘zlardan iborat bo‘lishi bilan farq qiladi” [6:98]. Shundan kelib chiqib, tuyuqning uch muhim xususiyati mavjud:

1. *To‘rt misrali bo‘ladi*
2. *Aruzning muayyan vaznida yoziladi.*
3. *Tajnis (shaklan bir xil so‘zlar) bilan qofiyalanadi [7:100].*

Turkiy adabiyotda tuyuq haqidagi dastlabki ma’lumotlar Shayx Ahmad Ibn Xudoydod Taroziyining “Funun al - balog‘a” asarida berilgan: “Va ruboiyning bir nav‘i taqi bo‘lur. Oni **mujannas** derlar. Aningtek bo‘lurkim, ruboiyning qofiyasida tajnis rioyer qilurlar. Misoli bu tarz:

To ko‘ngulda ish o‘ti – **tobandadur**,
G‘am maishat panjasin **tobandadur**.
Kiprik o‘tin qismat etib otsangiz,
Hech kishiga tegmas ul – **to bandadur**” [4:14].

Ushbu baytda “tobandadur” so‘zi tajnis, **rosa tobidadir, u yerda topadi, u tomondadir** singari uch ma’noda kelyapti. “Va bu turk shoirlarining ixtiroidur. Muni turklar **tuyuq** derlar” [4:14].

Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon”, “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarlarida ham tuyuq haqida ma’lumotlar va misollar berilgan. “Muhokamat ul-lug‘atayn” da quyidagi misol keltirilib:

Chun pariyu hurdir **oting**, begin,
Sur‘at ichra dev erur **oting**, begin.
Har xadangikim, ulus andin qochar,

¹ ShahDPI talaba

Notavon jonom sari **oting**, begim [5:514].

Va bu ikki baytki, tajnisi tomdur, ham turk shuarosi xossasidurki, sortda yo‘qdur va muni **tuyug** derlar.

Hozirgi adabiy jarayondagi tuyuqlar yuqoridagi tuyuq qoidalariqa qanchalik mos keladi? Hozirgi adabiy jarayonda ham tuyuqlar yaratilyaptimi? Ushbu fikrlarni tahlil qilib chiqamiz. Masalan, Ismat Sanayevning quyidagi she’ri:

Bog‘imizga ko‘rk bergan,

Shoxlar egik, mo‘l **olma**.

Qizarib, xush bo‘y tarab,

Pishmasa uzib **olma** [1:19].

Ushbu she’r tuyuq kabi to‘rt misradan iborat. Tajnisli so‘z – “**olma**”. Ikki ma’noda: **meva, olmoq fe’lining bo‘lishsizlik shakli**. Qofiyalanishi: b,a,b,a. Yaxlit ma’noni anglatyapti. Ammo aruz vaznida emas, barmoq vaznida yozilgan. Ko‘rinadiki, yuqoridagi xususiyatlardan ikkitasiga mos kelyapti. Demak, ushbu she’rni qisman tuyuq deb olsak, bo‘ladi. Hozirgi adabiy jarayondagi yuqoridagi kabi tuyuqlarga o‘xshash she’rlarni ba‘zi shoirlar ijodida tadqiq qilamiz. Shoirlar Botirjon Ergashev bunday tuyuqlarni “Yangicha tuyuqlar” deb atagan bo‘lsa, Ismat Sanayev esa “So‘z suydigan sehr” deb nomlangan devon tartib qilgan.

Adabiyotshunoslikda tuyuqnинг quyidagi 6 ta turlari farqlanadi: 1) *uch misrasi tajnisli qofiyalangan tuyuq*; 2) *to‘rt misrasi tajnisli qofiyalangan tuyuq*; 3) *ikki misrasi tajnisli qofiyalangan tuyuq*; 4) *radifi tajnis bo‘lgan tuyuq*; 5) *uch misrasi qofiyalanuvchi tajnissiz tuyuq*; 5) *faqat juft misralari qofiyalanuvchi tajnissiz tuyuq* [3:188]. Dastlab, ushbu tuyuq turlarini I.Sanayev va B.Ergashev ijodida ko‘rib chiqamiz:

1) **uch misrasi tajnisli qofiyalangan tuyuq:**

Siz men sevgan go‘zal bir yor, qalb tanlagan

dildorisiz,

Etmasangiz rahm – shafqat qolg‘ay bemor

dil dorisiz.

Poyingizda boshim egib, ahdga sodiq qual

bo‘lmasam,

Sochlaringiz sirtmoq qilib, osgum o‘zim

dil dori siz [1:45].

Ushbu tuyuqda “dildorisiz” tajnis so‘zi **go‘zal yor, davolovchi dori, dor** singari ma’nolarini bildirib kelyapti.

Omad, senga yuragimda o‘tinchim **bor**,

Hayotimning manziliga men bilan **bor**.

Ofatijon go‘zallardek noz qilasan,

Hech bo‘lmasa kulib boqqin menga **bir bor** [2:153].

2) **to‘rt misrali tajnisli qofiyangan tuyuq:**

Alpomish kelbatli, qad bo‘lsa ham **dov**,

Davrada yuragi hech bermadi **dov**.

Omad kulib unga kelganida **dav**,

Notinch qildi nizo – jonga tekkan **dov** [1:32].

Tuyuqdagi tajnis so‘z – “**dov**”. Tajnis so‘zi: **bo‘yi baland, jur’at, talab qilish navbati, kurashuv** ma’nolarini bildiryapti.

3) **ikki misrasi tajnisli qofiyalangan tuyuq:**

Olamda men uchun erursan vohid,

Bir men emas, oyu quyosh ham **shohid**.

Ko‘rmadi ko‘zlarim senday zeboni,

Ahli go‘zal ichra o‘zingsan **shohid** [1:37].

“**Shohid**” so‘zi ikki o‘rinda tajnis bo‘lib kelgan: **guvoh, dilbar** ma’nolarida.

4) **radifi tajnis bo‘lgan tuyuq:**

Dunyo misli qo'sh yong'oq **palla**:

Qahraton qish, issiq yoz **palla**.

Deydilarki, haq bo'lgan joyda,

Og'ir kelar tarozi **palla** [1:17].

Ushbu tuyuqda "palla" so'zi tajnis bo'lib kelgan: **yong'oq pallasi, payt, tarozi pallasi**. Ko'rindiki, ushbu ikki shoir ijodida tuyuqning 4 ta turiga duch kelamiz. Bundan tashqari, ikki shoir ijodida ham yana bir shunday tuyuq turi borki, unda juft misralar juft misralar bilan, toq misralar toq misralar bilan tajnisli qofiyalanadi:

Istasang yig'lagin, yo isatasang **kul**.

Oshkor etadirman ko'nglim **sirini**.

Dilim kuyib bo'ldi – ku bir hovuch **kul**,

Ko'chirding yor sabrim jomin **sirini** [2:154].

Ushbu tuyuqda "kul" va "sirini" so'zleri tajnis bo'lib kelgan. "Kul" so'zi **kulmoq, yonish natijasida hosil bo'ladigan changsimon qoldiq** ma'nolarida kelgan bo'lsa, "sirini" so'zi esa **boshqalarga noma'lum, bo'lgan biror ish, buyum betini qoplash uchun ishlataladigan yaltiroq bo'yoq**.

Yer mulkidir molu dunyo misli **xas**,

Sochilib, elga uchib bo'lg'ay **ziyo**.

Deydilar, loydin bino emish har **kas**,

Kun kelib tuproq aro bo'lg'ay **ziyo** [1:131].

Endi tuyuqlardagi ma'no – mazmunni o'rganib chiqsak: **Pand – nasihat ruhida yozilgan tuyuqlar**:

O'yla, sen ham qirq birga **to'lgansan-a?**

Behuda o'tgan umring bir-bir **sana**.

Kecha o'tdi, erta – orzu, bugun – naqd,

Yodingdan chiqmasin shu kungi **sana** [1:22].

Tuyuq vaqtini besamar o'tkazmaslik haqida. Tajnisi – "sana". Birinchi misrada qo'shimcha bo'lib, keyingilarida alohida so'z bo'lib kelgan. Ma'nolari: **yoshga to'immoq, sanamoq, vaqt (muddat)**. Ishq – muhabbat mavzusi yoritilgan tuyuq:

Men tomonga jo'shqin soy kabi **oq**,

Cho'milayin ko'kda suzgan **oyday**.

Kutaverib tushdi sochimga **oq**,

Sensiz o'tgan bir lahzam **bir oyday** [2:155].

Tuyuqda "oq" (**harakat, rang**), "oyday" (**osmon jismi, 30 yoki 31 kundan iborat muddat**) so'zleri tajnis bo'lib kelgan. Oilaviy **muammolar yoritilgan tuyuqlar**:

Rais dedi: Korxonada **boringiz**,

Arazgo'y kelinni so'rab **boringiz**.

Kam desa, sarf aylang yo'gu **boringiz**,

Oila buzilmasin yolvoringiz [1:43].

Tuyuq qofiyalanishi: a,a,a,b shaklida. Tajnisi: "boringiz" so'zi **hamma, bormoq, mavjud** ma'nolarida kelgan. Endi tuyuqlardagi qofiyalanuvchi tajnislarning qanday so'zlar orqali vujudga kelganini o'rganib chiqamiz: **Sheva orqali ifodalangan tajnislari**:

Rosa pishibdi, **ol, u** –

Dilbar, ranglari **ol u**.

Yozning erka mevasi,

Biram shirali **olu** [1:122].

Tuyuqda shevadagi "olu" so'zi tajnis bo'lib qo'llanilgan va **olmoq, ol (qizil rang), olu** (shevada: olxo'ri) ma'nolarini bildirgan. **Ibora va so'zlar orqali ifodalangan tajnislari**:

Hech ozor bermang **tanga**,

Yo‘qsa bari bir tanga.

Shikast yetib sog‘liqqa,

Demasin: **Holing tang-a?** [1:14]

Tuyuqda “tanga” so‘zi tajnis bo‘lib kelgan, “bari bir tanga”, “holing tang-a” iboralari tarkibida “tanga” so‘zi kelgan. Birinchi misrada “tanga” so‘zi **tan (inson tanasi)**, ikkinchi misrada “bari bir tanga” iborasi **qiymatsiz, ahamiyatsiz**, to‘rtinchi misrada “holi tang” iborasi esa **ahvoli yomon** ma’nolarida kelgan. Gap shundaki, to‘rtinchi misradagi iboraning “-a” yuklamasi bilan kelishi taajjub ma’nosini bildirgan. **Mashhur shaxslar ismlaridan tajnis sifatida foydalanilgan:**

Tinglamay tavhidni tengi yo‘q **mashrab**,

Bo‘lmaq‘ay bu olamda ahli **mashrab**.

Mehribon topilmas Allohdin o‘zga,

Sevishni o‘rgatdi avliyo **Mashrab** [1:30].

Ushbu tuyuqda “Mashrab” so‘zi tuyuq bo‘lib kelgan: **tabiat, yo‘l - yo‘riq, maslak, shoir Mashrab**. Misralar ma’nosini chiqarib olish uchun, misradagi notanish so‘zlarni bilib olish zarur. Birgina notanish so‘z “tavhid”. **Tavhid – birlik, yagonalik; so‘fiylikda Allohning birligiga jazman e’tiqod qilish darajasiga yetish**. Tuyuq misrama-misra qaralganda quydagicha ma’no kelib chiqadi: Yagona Allohga butun tabiat e’tiqod qilmasa, Bu olamda ahli maslak bo‘lmaydi. Allohdan o‘zga mehribon topilmas, Allohga sevishni avliyo Mashrab barchamizga o‘rgatdi.

Joy nomlaridan tajnis sifatida foydalanilgan:

To‘lqinlanib ham mavjlanar **oq daryo**,

Manzil sari jo‘shib - jo‘shib **oq, daryo**.

Zarafshonning belini zar belbog‘day,

O‘rab turar Qoradaryo, **Oqdaryo** [1:40].

Tajnis “Oqdaryo” bo‘lib kelgan. 1-2-misralarda ajralgan holatda kelgan. **Oq rang, harakat ma’nosini (oq daryo), daryo nomi** ma’nolarini anglatgan.

Arab harflaridan tajnis sifatida foydalanilgan:

Visolingga intiq **ayn**,

Hajringda qondur **aynayn**.

Jon olib jon bag‘ishlar,

Qadding bezagi **zulfayn** [1:90].

Tajnis bo‘lib kelgan “Ayn” so‘zi ikkinchi misrada takror qo‘llanilib, tajnis bo‘lgan bo‘lsa, to‘rtinchi misrada “zul” so‘zi “ayn” oldidan kelib tajnisni hosil qilgan. Birinchi misra ma’nosini: **oshiq arab alifbosidagi ayn harfiga o‘xhatilgan, ayn harfining ko‘rinishi xuddi boshi egik insonga o‘xshaydi**. Oshiq yorning visolinini kutaverib, boshi xam bo‘lgan. Ikkinchi misra: **aynayn – ikki ko‘z**, hajringda ikki ko‘zim qon bo‘ldi. Uchinchi misra: **zulfayn – ikki o‘rim soch**. Qadding bezagi ikki o‘rim soching.

She’riy san’atlardan tajnis sifatida foydalanilgan:

Sirlidir, Zarafshon, Sir, **Amu, ammo**,

Insonga muntazir ko‘plab **muammo**.

Bir she’riy san’atki, maqsad yashirin.

Ishora, yechimsiz bo‘lmas **muammo** [1:95].

Ushbu tuyuqda “muammo” so‘zi tajnis bo‘lib kelgan. Quydagicha ma’nolarda kelgan: *bog‘lovchi vazifasida, muammo (tashvish) ma’nosida, muammo she’riy san’ati (baytda ma’lum bir ishoralar orqali biror kishining ismi sharifi yoki joy nomini chigarish).*

Arxaizmlardan tajnis sifatida foydalanilgan:

Tunlar seni o‘ylab, band bo‘lgum har **pos**,

Sadoqat bobida qilsang koshki **pos**.

Sochingning uzilgan tolasin hatto,

Ardoqlab asragum yolg‘iz o‘zim **pos** [1:115].

Keltirilgan tuyuqda “pos” so‘zi tajnis sifatida olingan. “Pos” so‘zi arxaik so‘z hisoblanadi. Bu haqida E.Vohidovning “*Tirik xazina yoxud jahongashta so‘z*” maqolasida berilishicha, *pos* – tunning sakkizdan biri. Demak, taxminan bir soatga teng tungi muddat. Bir soatlik tungi soqchi – posbon. Ajabki, o‘z so‘zimiz bo‘lgan *pos* jahon kezib, yana o‘zimizga *post* shaklida, *qo‘riqlanadigan joy, soqchining o‘rni, lavozim* ma’nolarini olib qaytibdi”. Aynan bиринчи misrada **tunning har soati**, иккинчи misrada **rioya**, то‘ртинчи misrada esa **qo‘riqlash** ma’nolarida kelgan. Tuyuq mazmuni quyidagicha:

Tunlarni har soat seni o‘ylab o‘tkazaman,
Qaniydi sadoqatingga rioya qilsang,
Sochingning uzilgan tolasin hatto,
O‘zim ardoqlab, qo‘riqlab asrayman.

Xullas, bugungi adabiy jarayondagi tuyuqlar mumtoz adabiyotdagi kabi mukammal bo‘lmasa-da, lekin badiiy qiymatini aslo yo‘qtgani yo‘q. Shoirlar tuyuq janri orqali turli ma’nolarni olib chiqishga intilmoqdalar. Turli so‘zlarni tajnis sifatida qo‘llash orqali esa so‘z o‘ynoqiligini, o‘zbek tilining boy ekanligini o‘quvchilarga yana bir marta isbotlamoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Sanayev. So‘z suydirgan sehr. Devon. –T.: “O‘zbekiston”, 2016.
2. B.Ergashev. Kundan kun yaxshi. She’rlar. –T.: “Sharq”, 2014.
3. D.Yusupova. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. Darslik. -T. 2019. 187 b.
4. “Funun ul-balog‘a”. O‘zbek tili va adabiyoti. Meros. 1-son. 2002.
5. A.Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. –T.: “G‘afur G‘ulom”, 2012. 514 b.
6. R.Orzibekov. O‘zbek she’riyati janrlari. Samarqand – 1999. 98 b.
7. D. Yusupova. Adabiyot. Universal qo‘llanma. –T. 2013. 100 b.
8. www.ziyouz.com kutubxonasi.